

**“Ko‘hitang botanik geografik rayon florasi tarkibidagi *Caryophyllaceae*
oilasining zamonaviy tahlili”**

**Murodullayev Nurali Zokir o‘g‘li., Ibragimov Akram Javliyevich.
Ne‘matov Asilbek Hikmatullo o‘g‘li.**

Termiz Davlat universiteti talabasi. Termiz Davlat universiteti Botanika kafedrası
dotsenti. Termiz, O‘zbekiston.

nurali.murodullayev0886@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ko‘hitang botanik geografik rayon florasi tarkibidagi *Caryophyllaceae* oilasining zamonaviy tahlili yoritilgan. Dunyoda inson tomonidan tabiiy ekotizimlarni keng o‘zlashtirilishi va ekologik muhitni buzilishi flora obyektlari xilma-xilligining qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu o‘rinda, o‘simlik turlarini saqlab qolishning global strategiyasi sifatida ma‘lum hudud floralari holatini baholovchi samarali biohujjatlashtirish amaliyotini ishlab chiqish zarur sanaladi. Jahonda, mahalliy va milliy floralar xilma-xilligini aniqlash, himoyaga muhtoj turlarini saqlab qolish va muhofazalashga qaratilgan xalqaro dasturlarni takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu jumladan ushbu oilaning zamonaviy tahlili muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Аннотация

В статье представлен современный анализ семейства Гвоздичные (*Caryophyllaceae*) флоры Кохитангского ботанико-географического региона. Повсеместная эксплуатация человеком природных экосистем и разрушение экологической среды во всем мире приводят к сокращению разнообразия флоры. В этом контексте необходимо разработать эффективную практику биодокументирования, оценивающую состояние флоры на данной территории как часть глобальной стратегии сохранения видов растений. Во всем мире уделяется большое внимание совершенствованию международных программ, направленных на выявление местного и национального разнообразия флоры, сохранение и защиту исчезающих видов. Включение современного анализа этой семьи является важным и актуальным вопросом.



Abstract.

This article discusses the modern analysis of the Caryophyllaceae family in the flora of the Kokhitang botanical geographical region. In the world, the widespread development of natural ecosystems by humans and the destruction of the ecological environment are leading to a decrease in the diversity of flora objects. In this regard, it is necessary to develop an effective biodocumentation practice that assesses the state of the flora of a given area as a global strategy for the preservation of plant species. In the world, much attention is paid to improving international programs aimed at identifying the diversity of local and national flora, preserving and protecting species in need of protection. In particular, the modern analysis of this family is an important and urgent issue.

Kalit so'zlar. Ko'hitang, flora, Caryophyllaceae, oila, tur, xaritalash, tog', polimorf, takson, poya, barg.

Ключевые слова. Растение, флора, Caryophyllaceae, семейство, вид, картографирование, гора, полиморф, таксон, стебель, лист.

Key words. Plant, flora, Caryophyllaceae, family, species, mapping, mountain, polymorph, taxon, stem, leaf.

Ilk bor Tog'li O'rta Osiyo provinsiyasi G'arbiy Hisor okrugiga kiruvchi Ko'hitang geografik botanik rayoni florasida tarkibidagi *Caryophyllaceae* oilasining 20 ta turkumga mansub, 37 ta turni tashkil etishi aniqlandi hamda ushbu turlarning tarqalishini aks ettiruvchi to'r tizimli xaritalash, kamyob, yo'qolib borayotgan va endem turlarning tarkibini aniqlandi va o'sish maydonlarini xaritalash hamda floraning keng ko'lamli tahlili amalga oshirildi. *Caryophyllaceae* oilasi Surxon davlat qo'riqxonasi florasida yettinchi o'rinni (37 tur yoki 4,98%) egallaydi. Bu oila Ko'hitang florasida sakkizinchi (57 tur yoki 4%) hamda Boshqizilsoy florasida to'qqizinchi (40 tur yoki 4%) o'rinda keladi. Keltirilgan ko'rsatkichlar O'rta Osiyo tog'li floralari uchun xos xususiyat hisoblanadi va odatda polimorf oilalar spektrida 5-9 o'rinlarni tutadi.

Caryophyllaceae oilasi vakillarining taksanomik tahlili

№	Turkum	Turlar
1.	Acanthophyllum	Acanthophyllum pungens (Bunge) Boiss. herb.
2.	Agrostemma	Agrostemma githago L.
3.	Allochrysa	Allochrysa gypsophiloides (Regel) Schischk. herb.
4.	Arenaria	Arenaria leptoclada Guss..
5.	Arenaria	Arenaria serpyllifolia L. herb.
6.	Buffonia	Buffonia oliveriana Ser. TASH
7.	Cerastium	Cerastium dichotomum L. herb
8.	Cerastium	Cerastium inflatum Link. herb.
9.	Dianthus	Dianthus baldshuanicus Lincz. herb.
10.	Dianthus	Dianthus seravschanicus Schischk.
11.	Dianthus	Dianthus tetralepis Nevski herb.
12.	Dichoglottis	Dichoglottis alsinoides (Bunge) Walp. (=Gypsophila alsinoides)
13.	Eremogone	Eremogone griffithii (Boiss.) Ikonn. (=Arenaria griffithii) herb.
14.	Holosteum	Holosteum polygamum C. Koch. herb.
15.	Holosteum	Holosteum umbellatum L.
16.	Kughitangia	Kughitangia popovii (Preobr.) Ovcz. TASH
17.	Lepyrodiclis	Lepyrodiclis holosteoides (CAM.) Fenzl. herb.
18.	Lepyrodiclis	Lepyrodiclis stellarioides Schrenk. herb.
19.	Minuartia	Minuartia meyeri (Boiss.) Bornm. herb.
20.	Minuartia	Minuartia regeliana (Trautv.) Mattf.
21.	Pleconax	Pleconax conica (L.) Šourkova (=Silene conica L.) herb
22.	Pleconax	Pleconax coniflora (Ness. ex Otth.) Šourkova (=Silene coniflora) TASH
23.	Pleconax	Pleconax conoidea (L.) Šourkova (=Silene conoidea L.) herb.
24.	Queria	Queria hispanica L.* herb.
25.	Silene	Silene guntensis B. Fedtsch. herb.
26.	Silene	Silene kuschakewiczi Regel et Schmalh. herb.
27.	Silene	Silene nataliae F.O. Khass. et I.I. Malzev BotURN
28.	Silene	Silene nevskii Schischk.
29.	Silene	Silene plurifolia Schischk. herb.
30.	Silene	Silene saravschanica Regel et Schmalh. TASH

31.	Silene	Silene	tachtensis Franch. herb.
32.	Silene	Silene	turkestanica Regel (=Melandrium turkestanicum)
33.	Stellaria	Stellaria	media (L.) Vill. herb.
34.	Stellaria	Stellaria	neglecta Weihe. herb.
35.	Tytthostemma	Tytthostemma	alsinoides (Boiss. et Buhse) Nevski
36.	Vaccaria	Vaccaria	pyramidata Medic.
37.	Velezia	Velezia	rigida L. herb.

Ko‘hitang florasida uzoq vegetatsiyali bir yillik o‘tlar 131 turdan (17,63%) iborat bo‘lib, ularni ko‘proq *Brassicaceae* (16), *Poaceae* (16), *Fabaceae* (15), *Asteraceae* (15) oilalarining turlari tashkil etadi. Efemerlar soni sezilarli darajada bo‘lib 115 turdan (15,48%) iborat (*Caryophyllaceae*-15, *Brassicaceae*-15, *Poaceae*-13, *Boraginaceae*-10 va boshqalar).

Bundan tashqari *Caryophyllaceae* oilasining O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kitobiga kiritilgan turlari ham mavjud.

Silene michelsonii Preobr- Mixelson zo‘r chasi. Surxondaryo viloyati: X, isor tizmasida tark;algan. Buyi 25-30 sm ga yetadigan kup yillik ut. Poyalarining asosi juda kup kurib krlgan barg krl digugari bilan uralgan. Barglari chuzikrok; teskari tuxumsimon, uchi utkir. Kosachasi sal pufaksimon, yupk;a, silindr kungirok; simon, 10 ta tomirli. Tojbargi oq, tuksiz. Iyunda gullab, mevasi iyul oyida yetiladi.

Silene tomentella Schischk.- Momiq zo‘r cha Bo‘yi 30-40 sm oraligidagi kup yillik ut. Poyasi ko‘p, pastki qismi yog‘ochlanuvchi. Barglari ingichka nashtarsimon, 4-6 sm uzunlikda, eni 3-5 sm, poyaning pastidagilari ingichkalashib borib, bandga aylangan, yuqorisidagi barglari ancha mayda. To‘pguli shingilsimon. Kosachasi silindrsimon, tugnagichsimon, uzunligi 18-20 mm. Tojbargi oqish, kosachadan bir yarim marta uzun. Tojbargining 2/3 qismi qirqilgan. Mevasi ko‘sakcha, tuxumsimon, uzunligi 11 mm, eni 6 mm. Qoldiq; tog‘larda, toshlarning bo‘laklari orasida va toshli quruq; yonbagirlarda o‘sadi.

Silene popovii Schischk- Popov zo‘r chasi. Balandligi 20-25 sm ga yetadigan sershox va serbarg kup yillik ut. Gulpoyasining uzunligi 15-20 sm. Mevasiz poyasi va poyaning pastki sismidagi barglari ingichka chizikli, poyaning yutsorisidagilari uchli-nashtarsimon. Gullari poyaning uchida 3-7 tadan joylashgan. Guloldi bargchalari utsimon, poyaning yutsori sismida joylashgan barglarga)shgash. Kosachasi silindrsimon, uzunligi 13-15 mm. Tojbarglari och pushti rangli.



Ko'sakchasi chuziq, uzunligi 10 mm. Aprel-may oylarida gullab, mevasi may-iyunda yetiladi.

Silene oreina Schischk.- Tog' zo'rchasi ko'p yillik, ko'p boshchali [kaudeksli] va kup poyali, buyi 10-15 sm orasidagi ut. Barglarining uchi chuzilgan, juda utkir, bezchasimon qalin tuklar bilan qoplangan. Ildiz bo'g'izidagi barglari teskari nashtarsimon, asosiga qarab ingichkalashib boradi. Poyadagi barglari keng cho'ziq. Gullari oq, poyaning uchida 1-3 tadan o'rnatilgan. Kosachasi gulidan 2-3-marta uzun, dastlab silindrsimon, keyinroq qung'iroksimon shaklli. Karpofori tuksiz. Kusagi tuxumsimon. May oylarida gullab, mevasi may-iyunda yetiladi. Toshli, toshshag'alli joylarda va qoyalarda o'sadi.

Silene nataliae F.O. Khass.- Nataliya zo'rchasi yarim butacha. Barglari ildiz bo'g'izida joylashgan, bo'lmali, uzunligi 3-5 sm, ikkala tomoni oddiy yoki bezchali tuklar bilan qoplangan. Gullari 3-6 ta. Kosachasi oddiy va bezchali tuklar bilan qalin qoplangan, keng qo'ng'iroqsimon, pushtirang, uzunligi 12-14 mm, tishchalarining uzunligi 2-4 mm, gultoiji sariq, yuqori qismi pushtirang, qaytaqisi 5-6 mm uzunlikda, ikki bulakli, tishchasiz. Changchi va ustunchasi tuksiz. Karpofori 4-5 mm uzunlikda, tuksiz. Kusagining uzunligi 6-7 mm, tuksiz. Iyulda gullab, mevasi avgustda yetiladi. Kux, itang tizmasi (Surxondaryo viloyati)da tarkalgan.

Silene paranadena Bondarenko et Vved.- Bezchali zo'rcha ko'p yillik o't o'simlik, balandligi 30-50 sm, poyalari kup, asosiga yak;in joylari sattik; yogochsimon. Barglari nashtarsimon, uzunligi 3-6 sm, eni 10-12 mm. Gullari shoxchalarining uchlarida bittadan joylashgan, yirik, uzunligi 30-32 mm. Gultoiji oq-pushtirang, chuqur ikkiga bo'lingan. Kosachasi to'g'nag'ichsimon silindr shaklida, shishmaydi, uzunligi 22-25 mm, naychasi tuksiz, tishchalari oq, tukli. Mevasi ko'sak, uzunligi 10-12mm. Aprel-iyunda gullab, mevasi yetiladi.

Acanthophyllum albidum Schischk.- Bigizsimon oqtikan Balandligi 30 sm ga yetadigan, yog'ochlanuvchi yarim buta. Barglari bigizsimon, poyada qarama-qarshi joylashgan, uzunligi 2-4 sm, eni 1,5 sm. Gullari poyalarining uchida, diametri 5 sm ga yetadigan qalqonsimon to'pgul hosil qilib joylashgan. Kosachasi naysimon, uzunligi 6-7 mm. Toj barglari oq, asosi sal pushti rang, eni 1,5 mm.

Acanthophyllum cyrtostegium Vved- Ninasimon oqtikan bo'yi 20-30 sm ga yetadigan, poyasining pastki k;ismi yogochlanuvchi, kup poyali yarimbuta. Barglari ignasimon, uch k;irrali, tikanli. Guloldi bargchalari deyarli qalami, tikanli, asosi bo'rtliqli. Gullari uchtdan poyaning uchidagi qubbasimon to'pgulda, uzun



gulbandlarda o‘rnashgan. Kosachasi silindrsimon. Tojbargi 15-16 mm uzunlikda, pushti rangli. Tugunchasi 4 urug’ kurtakli. May oyida gullab, mevasi iyunda yetiladi.

Dianthus uzbekistanicus Lincz.- O‘zbekiston chinniguli bo‘yi 40 sm gacha yetadigan ko‘p yillik o‘t. Poyalari ko‘p, oddiy, ba‘zan yuqori qismidan shoxlangan, tuksiz, pastki qismi g‘adirbudur, uzunligi 20-35 sm. Barglari ko‘kimtir yashil, o‘tkir uchli. Gullari yakka-yakka, asosi qalin tukli, pushti rangli. Mevasi – ko‘sakcha, ko‘p urug’li. May oyida gullab, mevasi iyunda yetiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alexin V.V. Geografiya rasteiniy. – M.: Sov. kniga, 1938. – 104 s.
2. An E.S., Botman K.S. Zapovednye territorii Uzbekistana.– Tashkent: Uzbekistan, 1980. – S.–35–38.
3. Ibragimov A.J. Endemizm flori xrebtu Kugitang // Bioraznoobrazie: problemy i perspektivy soxraneniya: Materialy mejd. nauch. konf. 13-16-maya 2008 g. – Penza, 2008. – S. 217-219.
4. Ibragimov A. J. Surxon davlat qo‘riqxonasi florasining daraxt va butalari // O‘zbekistonda cho‘llanishning yekologik muammolari: Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 25-26 sentabr 2008-y. – Tashkent, 2008. – B. 53-55.
5. Kamelin R.V. Vidovoy sostav rastitelnoy pokrova ushchya r. Varzob. Vysshie rasteiniya // Flora i rastitelnost ushchya reki Varzob. – L.: Nauka, 1971. – S. 151-238.
6. Ro‘ziev A.N. Surxondaryo viloyati. – Toshkent: Jayxun, 1996. – 30 b.
7. Flora Uzbekistana. V 6-i t. – Tashkent: Izd. AN UzSSR, 1941-1962.

